

RANG BILAN BOG‘LIQ POETIK TIMSOLLARNING USLUBDAGI IFODASI

Tajibaeva Dилфуза Erkinovna
Namangan davlat universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya Maqolada XX asr o‘zbek she‘riyatining iqtidorli vakillaridan biri Xurshid Davronning individual poetik uslubi shoir yaratgan rang bilan bog‘liq poetik timsollar ifodasi orqali aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Poetik uslub, poetik timsol, o‘zbek she‘riyati, g‘oyaviy-uslubiy yo‘nalish, idrok etish uslubi, ifoda etish uslubi, individual uslub, usul, nasr, she‘riyat.

POETIC SYMBOLS RELATED TO COLOUR EXPRESSION IN STYLE

Namangan State University
Doctor of philosophy in philology,
associate professor

Abstract: The individual poetic style of Khurshid Davron, one of the talented representatives of Uzbek poetry of the 20th century, is reflected in the article through the expression of poetic symbols related to color created by the poet.

Key words: Poetic style, poetic image, Uzbek poetry, ideological and stylistic direction, perception style, expression style, individual style, method, prose, poetry

ПОЭТИЧЕСКИЕ СИМВОЛЫ СВЯЗАННЫЕ С ЦВЕТОМ ВЫРАЖЕНИЕ В СТИЛЕ

Тажибаева Дилфуза Эркиновна
Наманганский государственный университет
доктор философии по филологическим наукам, доцент

Аннотация: В статье индивидуальный поэтический стиль Хуршида Даврона, одного из талантливых представителей узбекской поэзии XX века, отражен через выражение поэтических символов, связанных с цветом, созданных поэтом.

Ключевые слова: Поэтический стиль, поэтический образ, узбекская поэзия, идейно-стилистическое направление, стиль восприятия, стиль выражения, индивидуальный стиль, метод, проза, поэзия.

KIRISH

She'riyatning vazifasi inson va uning muammolari, kundalik turmushdagi voqea-hodisalarni aks ettirishdan iboratdek tuyulgani bilan uning tushunib bo'lmay, ko'z ilg'amas manzillari bisyor. Ana shu manzillarni ko'zlash uchun ijodkorning rangin dunyosiga, individual olamiga kirib borish zarur. Shundagina uning o'ziga xosligi, badiiy ijoddagi mahorati birma-bir o'zligini namoyon qila boshlaydi.

Har bir ijodkorning o'ziga xosligini belgilovchi g'oyaviy-uslubiy yo'nalishi mavjud. Uslub bu insondir, degan fikrda haqiqat mujassam. Zamonaviy o'zbek she'riyatining bugungi kundagi iqtidorli vakillaridan biri Xurshid Davron o'z individual uslubiga ega bo'lgan ijodkordir. Bu o'ziga xoslik uning quyidagi tahlilga tortilgan she'rlarida, betakror misralarida va ifoda tarzida ko'rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Badiiy uslub ijodkorning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar, belgilar va ifoda jihatlaridan iborat bo'lib, u muayyan adabiy janrlar va shakllarda yuzaga chiqadi. Badiiy asar murakkab qurilma bo'lgani uchun ham badiiy uslub ham shakl, ham mazmun va ularning komponentlari orqali yuzaga chiqadi. Poetik uslub ijodkor shaxsiyatida, shoirning narsa va hodisalarga munosabatida hamda asarlarining ifoda tarzlarini orqali namoyon bo'ladi.

Arastu hakim "Poetika" asarida: "Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini yaratadilar. Hozirgina eslab o'tilgan san'atlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo so'z va yoxud garmoniya yordamida yoki shularning hammasi uyg'unligida tasvirlaydilar", deb yozgan. [1;20].

Arastu hakim bu o'rinda ijodkorlardagi mahorat, malaka, tug'ma iste'dod kabi o'ziga xosliklar, ijodkor individualligini nazarda tutadi.

Arab olimi Bishr ibn Mu'tamir: "Agar tiling ravon, qalaming o'tkir, bayoning yetuk, lafzing lutfli, iqtidoring tugal, fahm-farosating nozik bo'lsa, xoslar uchun yozganing ommaga ham tushunarli bo'lsa va omma uchun yozganing xoslar uchun g'aliz, qo'pol ko'rinmasa, buning uchun so'z va iboralarda mo'tadil, o'rta yo'lni topa olsang, tom ma'noda iste'dod sohibidirsan" [2;327] – deydi. Alloma ta'kidlaganidek, tilning ravonligi, qalamning o'tkirligi, matnning mulohazaliligi, so'zlarning go'zalligi, iqtidorlilik, o'tkir didlilik, xalqchillik, "xoslar" – sohaning maxsus kishilari uchun ham, omma uchun ham tushunarli yozish, ya'ni shoirning yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilishi va "o'rta yo'lni topa ol"ishi, o'rtacha bo'lsa ham o'z uslubining bo'lishini uqtiradi.

Yuqorida ko'rilgani kabi XX asr o'zbek adabiyotshunosligida ijodkor uslubiga doir turlicha qarashlar bildirilgan. Masalan, "Uslub – shoirning dunyoni ko'rishi, tasvirlashi va insonlarni anglashdagi eskirmas yangiligi. Ya'ni: badiiyluk – betakror uslub,"[3;118.] – deya ta'kidlaydi adabiyotshunos olim A.Rasulov. Badiiy uslubga "Adabiyotshunoslik lug'ati" mualliflari ijodiy individuallik masalasidan kelib chiqib yondashadilar: "Uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi". [8;339]

TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Xurshid Davronning ilk kitobi "Qadrdon quyosh" to'plamidayoq shoirning o'ziga xos uslub qirralari ko'rina boshlaydi. Uning she'rlarida beg'ubor bolalikning oppoq xotiralarini unuta olmagan va asta-sekinlik bilan katta hayot yo'liga qadam qo'yayotgan o'spirinning dunyoga munosabati ifodalanadi:

Oppoq edi boshda bu dunyo:

Ko'cha oppoq, kechalar oppoq,
Qanday yaxshi ekan bolalik,
Oppoq ranglar bilan yashamoq. [4;5].

Ijodkor aksariyat holatlarda idrok etish uslubi orqali poetik obraz yaratadi. Idrok etish uchun tushunish, anglash va tasavvurga singdira olish zarur. Shoirning tasavvuri, orzu-xayollari qanchalik keng va cheksiz bo'lsa, poetik obrazning haqqoniyligi, ishonarliligi shunchalik tez ko'zga tashlanadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik ramzi. Inson go'daklik chog'ida hech narsani anglamasligi mumkin, biroq bolalik davrida dunyoga o'zgacha nigoh, shirin orzular bilan nazar tashlaydi. Bolalik davrida inson ko'ngli toza, samimiy tuyg'ular ila oshno bo'ladi. Shuning uchun ham juda ko'p o'rinlarda insonlar tomonidan “oppoq bolalik” so'z birikmasi qo'llaniladi. She'rda dunyoning, ko'cha va kechalarning oppoq rangdaligi, beg'ubor bolalikning inson hayotidagi eng qadrlil onlar ekanligi ishonarli tasvirlangan. Hech qanday g'arazlar va xusumatlarsiz, faqat yaxshi umidlar sari intilayotgan bolalikning majoziy timsoli ifodalanadi. Inson asta-sekin katta hayotga qadam qo'yar ekan, hayotning pastu balandlarini, oq va qora ranglarini ajrata boshlaydi. Shoir keyingi misralarda tabiatda boshqa ranglar ham mavjudligi, bolalikning oppoq ranglari o'rniga endi yashil rangning kirib kelishini ifoda etadi. Yashil rangning ham ramziy ma'nolari juda keng. Yashil rang – bahoriy rang. Yashil rang – yangilanish, jonlanish; yashil rang – hayotning rangi, muvozanat va uyg'unlik. Demak, yashil rang harakatning ham boshlanishini ko'rsatadi:

Yashillandi keyin birma-bir
Dala, chorbog', omonat ko'prik.
Dovuchchadek mo'ltirab boqdi,
Qo'shni boqqa tushgan bolalik... [4;5].

Bolalik uchun qadrdon bo'lib qolgan joylar ham birdan o'zgara boshladi. “Dala, chorbog', omonat ko'prik” ham yashil tusga kirdi. Bolalik esa hali pishmagan ko'm-ko'k g'o'ra, ya'ni dovuchchadek olamga mo'ltirab qaray boshladi. Tabiat qonunlari hamisha haq. Odamzotga berilgan umr to'xtab

qolmaydi. Fursat sayin o'tib borayotgan umr uchun har bir kun o'tmishga aylanib, kecha bugunga o'z o'rnini bo'shatib beraveradi.

Moviylandi keyin barchasi...

Bolaligim termuldi mahzun:

Qorachig'i – tunning parchasi,

Ilk sevgisi kiprikdek uzun. [4;5.]

Shoir ta'riflaganidek: "Moviylandi keyin barchasi..." Moviy rang – osmon rangi, musaffolik timsoli. Bu rangda cheksizlik va o'ychanlik belgilari ham ko'zga tashlanadi. Keyingi misralarda esa oq, yashil, moviy ranglarning aralashib ketishi, nurning xira tortishi, jo'shqin bolalikdan keyingi umr yo'llarining sokin daryodek oqa boshlaganligi go'zal tashbehlar orqali ifodalanadi:

Keyin asta xira tortdi nur,

Aralashdi oq, yashil, moviy,

Bolalikdan keyingi umr

Daryodek tinch oqa boshladi. [4;5.]

Inson bir kuni hayotning go'zal bo'lish bilan birga ayovsiz ham ekanligini anglab yetadi. Nima bo'lgan taqdirda ham, o'z umri qanday ranglar olamida o'tganidan kat'i nazar o'zi uchun juda qadrli. Chunki u hayoti davomida juda ko'p do'stlar va ana shuncha dushmanlar ham orttiradi. She'r so'ngida "lirik men" o'tgan umriga nazar soladi. Umri davomida aziz va qadrli bo'lib qolgan ranglar uning tushlariga kirib "qasirg'a" sola boshlaydi:

Faqat ba'zan bu aziz ranglar

Tushlarimga solar qasirg'a,

Oppoq bolish ustida yonar

Ko'zdan oqqan tomchi – isirg'a. [4;5.]

"Lirik men"ning ranglar tufayli tushlaridagi "qasirg'a", ya'ni quyun bo'lib oromini olishi, ruhini bezovtalanishi inson hayotining keksalik onlariga ishorasidir.

Xurshid Davronning yuqoridagi she'rida inson umrining oddiy falsafasi aks etadi. Vaqtni to'xtatib bo'lmaydi. Vaqt o'z hukmini ko'rsatadi. Kechagina mavjud bo'lgan bolalik bugun xotiraga aylanadi. Bugun ham ertaga, albatta, o'tmishga

aylanadi. Shoir ko‘z ochib yunguncha o‘tib ketgan umrning sarhisobini – aziz va qadrli onlarini ranglar uyg‘unligida o‘ziga xos tarzda qismlarga taqsimlaydi. Misralardagi har bir rang tasvirida idrok va ifoda uyg‘unligini ko‘rish mumkin. She‘rning g‘oyasi – mazmundan kelib chiqadigan xulosa shuki, insonga berilgan umr juda qisqa va chegarali. Umrni orqaga qaytarib bo‘lmaydi. Muallif she‘rda ramz va majoz uyg‘unligi orqali inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni birlashtirishga, yaxlitlashtirishga urinadi.

Xurshid Davron “To‘marisning ko‘zlari” nomli she‘riy to‘plamini to‘rt qismga bo‘lib nomlaydi. “Bahor” deb nomlangan qismiga kirgan “Yaylov uzra kecha” deb boshlanuvchi she‘rida yaylovdagi bir kechaning go‘zal manzarasi oq ranglar bilan chizib beriladi. Shoir yangi oyning charaqlab turishi, oq biyaning kishnashi, qirovrang toychoqning shodligi, daraxt butog‘idan taralayotgan xushbo‘y isning taralishi kabilarda ifoda etish uslubidan mohirona foydalanadi. Ijodkor yangi oy – hilol poetik timsolini ham oq rangda, biyani ham oq rangda, toychoqni ham qirovrang, ya‘ni oq rangda chizadi. Bu manzaralar rassomning qog‘ozga chizilgan suratidek ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi:

Yaylov uzra kecha...

Hilol charaqlar...

Oq biya boshini ko‘tarar kishnab –

Ko‘zi yaraqlar...

Yashashdan mast go‘yo

Qirovrang toychoq...

Cheki yo‘q kechani

Zabt etib borar

Xushbo‘y bir butoq .[5;12.].

Shoir kecha tasvirida *Chayqalar kemadek oppoq na‘matak* kabi o‘xshatish ifodasida ham oq rangdan foydalanadi. *Xush isli shamollar ko‘ksini teshib Shabnam tomadi...* kabi jonlantirishdan o‘rinli foydalanadi. “Shabnam”ning rangi ham oq tusli ekanligi ma‘lum. She‘rda “qirovrang toychoq”ning “shataloq otib” chopib yurishi, butoqning shivirlashi kabi tasvirlarda yer yuzida bahor faslining

hukmronligi aks etadi. Bu o‘rinda ifoda etish uslubi asta-sekin rivojlanib boradi va so‘nggi misradagina yaylov uzra bahor kechayotganligi tasvirlanadi:

Yaylov uzra kecha...

Bahor...

Oy...

Adir...

Titrab- titrab bo‘yin tomirigacha

Otlar o‘tlayotir... [5;12.]

Bahor yangi hayot boshlanishi. Yer yuzidagi mavjud qurt-qumursqadan tortib, ongli mavjudot – insonlargacha bahorni xursandchilik bilan olqishlaydi. Ona tabiatning bir qismi hisoblangan otlar, toychoq, adir, kichik bir butoq kabi misollarda bahorni, yaylovni sog‘ingan poetik timsollarni ko‘rish mumkin.

Xurshid Davron she‘riyatida oq rang bilan bog‘liq ramziy-majoziy poetik timsollarni ko‘plab uchratamiz. Uning “Qadrdon quyosh” to‘plamiga kirgan quyidagi she‘rga e‘tiborni qarataylik:

Dalalarning qoq o‘rtasida

Yeru osmon aro bir ertak –

Yulduzlarning mayin sasidan

Tebranadi oppoq belanchak.

Uxlab qolar horigan ota,

Uxlab qolar terimchi suluv.

Uxlab qolar chorbog‘ ortida

Ariqchada jildiragan suv.

Faqat qora ko‘zlarin ochib,

Hayrat bilan to‘lganda quchoq,

Onasiga o‘xshatib oyni

Talpinadi oyday chaqaloq. [4;12.].

Dalalarda belanchak yasalishi o‘zbek onalari uchun oddiy holatga aylanib qolgan. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida paxta yetishtirish, uni yig‘ishtirib olish eng muhim siyosiy masala darajasiga ko‘tarilgan. Kuz mavsumida paxta terishga

barcha kasb egalari safarbar etilgan. Paxtakorning kuni qishgacha dalada o'tgan. Shu ma'noda dehqonning farzandlari ham dalada katta bo'lishgan. Shoir bunday go'zal manzarani "Eru osmon aro bir ertak," deya ta'riflaydi. Terimchi ayollar arqonga oq bo'zlar tortib, belanchak yasab, bolalarini shu belanchakda uxlatganlar. Oppoq belanchak ichida yotgan go'dak beg'ubor, begunoh. Ota ham, ona ham charchab uxlab qolganlarida go'dak oyni onasiga o'xshatib, unga talpinayotgan holati tasvirlanadi. Bu o'rinda oq rang beg'uborlik, tozalik timsoli sifatida gavdalanadi. To'plamning "Kuz" deb nomlangan qismi shunday boshlanadi:

Mezon kechdi.

Qanday shoshib kechdi bu mezon.

Hosil to'la aravasi loylarga botib

Sochi oqardi. [5;63.].

Shoir bu she'rda qo'llagan oq rang, ya'ni sochning oqarishi majoziy ma'noda bo'lib, kuzga nisbatan qo'llanilmoqda. Sochning oqarishi, ko'pincha, yosh o'tishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun keksalarga nisbatan ishlatiladi. Bu o'rinda "mezon"ning juda tez o'tib borayotgani va "sochi oqar"gani (keksaygani) ifodalanadi.

Xurshid Davron she'riyatida qora rang timsolini ham uchratamiz.

Dunyoning turli xalqlarida "Qora rang – motam, cheksizlik, qo'rquv, o'lim, mavhumlik ramzi bo'lsa, qizil rang – g'alaba, xursandchilik, shodlik, tiriklik, olov va qon timsoli"¹ sifatida ifodalanishi e'tirof etiladi. Hamma zamonlarda ham insonlar qorong'ulikdan qo'rqib yashaganlar. Inson hayotining qiyin pallalari ham uning "qora kunlari" sifatida ta'kidlangan.

Xurshid Davron ijodida esa qora rang o'zgacha ramziy ma'no kasb etadi. "Qo'rqmay kir qora tunga" deb boshlanuvchi she'rida inson hayotining qiyin kunlari, og'ir damlari, kurashlar va mashaqqatlar nazarda tutilsa ham qora rang qo'rquv ma'nosini ifodalab kelmaydi:

Qo'rqmay kir qora tunga,

Garchi o'tmog'ing qiyin,

¹ Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б.19.

Hech kim bas kelmas senga

Tundan o'tgandan keyin .[6;97.].

She'rda "qora tun"ga kirishga da'vat etilmoqda. "Qora tun" – kurash, qahramonlik, mardlik, jasorat yo'li. Muhimi, mana shu yo'ldan – "qora tun"dan o'tib olish. Bu yo'ldan o'tib olgandan keyin esa qo'rqmay jangga kirib boraveradilar. Bu yo'ldan o'tgandan keyin esa unga hech kim teng kela olmaydi. Shoir she'rning so'nggi to'rtligida yakunlovchi fikrni shunday ifodalaydi:

Tundan o'tganlar jangga

Qo'rqmay kirib borarlar.

Yerni bo'yar ol rangga

Tundan o'tgan botirlar. [6;97.].

Shoir bu to'rtlikda "ol" rangni ham tilga oladi: *Yerni bo'yar ol rangga, Tundan o'tgan botirlar*. Ol – qizil rang qon rangidir. Demak, botirlar kurashib, dushman qonini yerga to'kkandagina ana shu ol rang hosil bo'ladi. Shoir bu she'rda qora rang timsolida qiyin, mashaqqatli, azobli vaziyatlarni nazarda tutgan bo'lsa, "ol rang"da qasos, qonli kurashni e'tiborga olmoqda.

Shoirning "Basyo kitobining varaqlarida" deb boshlanuvchi she'rda sariq va alvon ranglar tilga olinadi:

Basyo kitobining varaqlarida

Sarg'aygan yaproqlar, alvon yaproqlar.

Qadim ibodatgoh... Undan narida

Toqqa o'rmalagan daydi so'qmoqlar. [6;97.]

Sariq rang – ayriliq, hijron, ba'zi o'rinlarda bemorlikning belgisi, ramziy timsoli. O'zbek mumtoz adabiyotida ham sariq rang tasvirini ko'plab o'rinlarda uchratish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur "Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim," deya ta'kidlab, sariq rang, sarg'ayish, xazon yaprog'idek bo'lishning go'zal timsolini yaratgan. Xalq orasida bemor bo'lish, kutish, intizorlik, eskirish ma'nolariga nisbatan ham sariq rang qo'llaniladi. Xurshid Davronning yuqoridagi she'rda "sarg'aygan yaproqlar" deganda inson umrining tushkun daqiqalari yoki unutilgan sahifalarini nazarda tutmoqda. Shoir ijod

sahifalarida “alvon yaproqlar”ga ham duch kelish mumkin. “Alvon rang” – qizil, lovullab turuvchi, jo’shqinlik kasb etuvchi rang. Demak, inson hayotining bir pallasi sariq rangdan iborat bo’lsa, bir pallasi qizil rangdan iborat qilib ifodalanadi.

XULOSALAR:

Xurshid Davron she’riyatida rang bilan bog’liq ramziy-majoziy timsollarning turli xil ko’rinishlari mavjud. Oq rang – poklik, beg’uborlik, yashil rang – yangilanish, jonlanish, moviy rang – musaffolik, cheksizlik, qora rang – zulmat, sariq rang – tushkunlik, unutish ma’nolarini ifodalab keladi.

Xurshid Davron ijodida rang bilan bog’liq timsollar faqat rang va shoirning ularga munosabatini ifodalabgina qolmaydi, balki shoir ranglar vositasida yangi timsollar yaratadi, rang timsol yaratishning yangi, o’ziga xos vositasi sifatida she’rga kirib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 20.
2. Bishr ibn Mu’tamir. Sino’atu-l-insho’ / Sharq mumtoz poetikasi. Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboev. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 327.
3. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq NMAK, 2007. – B. 118.
4. Xurshid Davron. Qadrdon quyosh. - Toshkent: G’.G’ulom nashriyoti, 1979. – B. 5.
5. Xurshid Davron. To’marisning ko’zlari. - Toshkent: Yosh gvardiya, 1984. – B.12.
6. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997. – B.97
7. O’tanova S. Alisher Navoiy g’azaliyotida rang simbolikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – B.19.

8. Quronov D., Mamajonov Z., Seralieva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 339.